

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**SAMARQAND VILOYATI XALQ TA'LIM XODIMLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIIY
MARKAZI**

**MAKTABGACHA, BOSHLANG'ICH VA MAXSUS TA'LIM
KAFEDRASI**

**BOSHLANG'ICH SINFI ODOB-NOMA DARSLARIDA
MILLIY QADRIYATLARNI SHUG'ULASHDA
TARBIYAVIY ISHLARNING O'RNI**

*(Umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich sinfi o'qituvchilari
uchun uslubiy ko'rsatma)*

SAMARQAND – 2020

O.Tuxtayev – Samarqand VXTXQTUMOHM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrası assistenti «Boshlang'ich sinf odobnoma darslarida milliy qadriyatlarni singdirishda tarbiyaviy ishlarning o'rnini» (*Umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun ko'rsatma*) Samarqand VXTXQTUMOHM, 2020-yil, 32 bet.

Muharrir: **J.Eshquvvatov** – Samarqand VXTXQTUMOHM
Ilg'or tajriba va xalqaro hamkorlik ilmiy-axborot
tadqiqotlar bo'limi boshlig'i

Taqrizchilar: **N.Kiyamov** – SamDU, pedagogika kafedrası
Dotsenti DsC falsafa doktori.

M.Raximqulova- Samarqand VXTXQTUMOHM
maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim
kafedrası mudiri. dotsenti.

Ushbu tavsiyanomada boshlang'ich ta'limda odobnoma darslarining ahamiyati, milliy qadriyat tushunchalarini pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish metodlari, boshlang'ich sinf odobnoma darslarida milliy qadriyatlarni singdirishda bo'yicha bir soatlik dars ishlanmasi berilgan bo'lib, boshlang'ich sinf o'qituvchilariga metodik yordam bo'ladi.

Uslubiy ko'rsatma hududiy markaz Ilmiy-uslubiy kengashining 2020 yil 27- iyuldagi 6.3-5 sonli yig'ilish qarori bilan nashr etishga ruxsat berilgan.

KIRISH

Ma'lumki, kuchli, qudratli davlat ma'naviyat zaminida vujudga keladi. Bunday qudratli davlatning kishilari ham o'z g'ururi, or-nomusi va qadriyatlarini himoya qilishga qodir insonlar bo'lishi lozim. Shunday ekan biz tarbiya jarayonida inson sha'ni g'ururi, or-nomusi va uni asrash, himoya qilishni yoshlarga o'rgatishimiz hamda oldimizga asosiy maqsad qilib qo'yishimiz kerak. Bugungi yoshlarimiz o'z taqdirining chinakkam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy qadryatlarning sohibi sifatida, odob- axloqimiz namunasi asosida ish tutadilar. Shu bois xalqimiz o'zligini anglab, mustaqillik poydevorini tobora mustahkamlab bormoqda. O'z navbatida ma'naviy- axloqiy yuksalish, bilan birga bir qancha o'z yechimini kutib turgan muammolar mavjud. Har – bir davlatning istiqboli, xalqning farovonligi osoyishta bo'lishini yosh avlod, umidli o'g'il- qizlariga bog'liq, chunki ertangi kun ularning qo'lida hisoblanadi.

Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, mamlakat fuqarolarining milliy g'ururi qancha baland bo'lsa, ularni jamiyat taraqqiyotiga qushadigan hissasi shuncha ko'p bo'ladi. Milliy g'urur deganda, o'z millatining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini chuqur anglab yetish, ona tili, dini, tarixi, madaniyati, adabiyoti va san'ati, urf-odatlarini, rasm-rusumlari, bayramu, sayillaridan faxrlanish tushuniladi. Milliy g'urur millatning vujudga kelishi, shakllanishi bilan paydo bo'ladi va rivojlana boradi. Millatning vujudga kelishi va rivojlanishi bevosita Vatan ravnaqiga bog'liq bulganligi uchun milliy g'urur taraqqiyoti va yuksalishi ham Vatan taraqqiyotiga bog'liqdir. shuning uchun ham milliy g'urur- Vatanga bo'lgan sadoqat, mehr-muhabbat, bir so'z bilan aytganda vatanparvarlikda yaqqol namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya berishda, milliy g'ururni shakllantirishda odobnoma darslari katta ahamiyatga ega. "Odobnoma" darslarini to'g'ri tashkil etish va olib borishda o'qituvchidan chuqur bilim, katta mahorat, ma'naviyati boy, izlanuvchan, eng muhimi fidoiy bo'lish talab etiladi. To'g'ri va xilma-xillikda tashkil etilgan darslar, o'quvchilarni faolligi va qiziqishi, bilimni oshirish orqali, barkamollikni shakllantirib boradi.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ODOBNOVA DARSLARINING AHAMIYATI.

Jamiyatda yoshlarga yuksak ma'naviy fazilatlarni singdirish, milliy boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatga hurmat, Vatanga muhabbat g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha xayrli ishlarni qadrlash kabi sifatlarni shakllantirish maqsadida kichik yoshdagi bolalar ongida odob-axloq malakalarining insonlarga xos bo'lgan eng zarur sifatlarni, ularning ichki va tashqi madaniyatini rivojlantirish, burch, intizom ma'suliyatini xis va idrok qilishlari maqsadida barcha fanlar qatorida "Odobnoma" darslarini tashkil qilishni hayotning o'zi taqozo etdi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda "Sog'lom avlod davlat dastur"larining qabul qilinishi munosabati bilan umumiy o'rta ta'lim, shu bilan birga boshlang'ich ta'limning ham mavqeyi ko'tarildi. Shu o'rinda, "Odobnoma" bo'yicha konsepsiya yaratilib, uning asosida o'quv dasturi yaratildi. "Odobnoma" konsepsiyasi va o'quv dasturida kichik yoshdagi bolalar bilan ishlashning pedagogik yo'nalishlari o'z ifodasini topgan. Hozirgi kunda milliy pedagogikamizda kichik yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning pedagogik va psixologik asoslarini chuqurlashtirishga xizmat qiladigan ilmiy qarashlar vujudga keldi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil bo'lgach, erkin fuqaro ma'naviyati, komil shaxsni shakllantirish oldimizda turgan eng dolzarb vazifasi bo'lib qoldi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganidek: "Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz". Odobnoma fanining asosiy maqsadlari ham shunga yo'naltirilgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyillari dasturi doirasida o'quvchilar qalbida mustaqillik g'oyasiga sadoqat hissini barkamol avlodga xos odoblilik san'ati va madaniyatini tarbiyalash;

- o'zbek xalqining milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarini amalda qo'llash malakasini shakllantirish;

Odobnoma "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar"

fanining dastlabki bosqichi bo'lganligi tufayli, uni o'qitishga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

– insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida madaniy, ma'naviy, milliy merosdagi avlod-ajdodlarimizdan qolgan odob-axloq haqidagi bilimlardan xabardor qilish;

– Markaziy Osiyo mutafakkir va ma'rifatparvarlarining asarlaridagi hikmat, o'git va nasixatlarni o'rgatib, ularga amal qilishni uqtirish;

– tabiatga to'g'ri munosabatning mohiyati, tabiatni muhofaza qilish insonning burchi ekanligi, ekologik nochorlikka olib keladigan sabablarni anglash va baholash b' oyicha bilimga ega bo'lish;

– ota-ona, Vatan oldidagi burchni anglash va unga sodiqlik nima ekanligini bilish;

– o'z-o'zini anglash shart-sharoitlarini, inson qadri va hurligini anglash, uning tabiatini, milliy va umuminsoniy madaniyatini, ona tilini saqlash, ma'naviy taraqqiyotni bozor iqtisodiyoti bilan uzviy rivojlanishini tushunib yetish;

– yuksak insoniy fazilatlar mohiyatini anglash, ularga ongli munosabatda bo'lish, yaxshini yomondan ajrata olish bilimiga ega bo'lish;

– ta'lim-tarbiya jarayonida beriladigan bilimlar yaxlit va ijtimoiy shart-sharoitlar, milliy va tarixiy ma'naviy omillar, umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini tushuntirish;

– o'quvchilarni bilim olish bilan birga yuksak insoniy komillik mohiyatini tushuntirish;

– odobnoma darslarida ma'naviy, ma'rifiy, iqtisodiy, huquqiy, kasbiy tushunchalarning mohiyatini uzluksiz anglatib borish.

Yuqoridagi talablardan kelib shiqqan holda, odobnoma fanidan o'quvchilarga quyidagitushunchalar beriladi:

1-sinfda: odoblilik sifati bo'lmish salomlashish, oila, ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik, Vatan tuyg'usi, Vatan himoyacvilari, ziyoratgohlar, yaxshi-yomon odatlar (yolg'onchilik, chaqimchilik, kamtarlik, maqtanchoqlik kabi), sehrli so'zlar (rahmat, marhamat, yaxshi) va hokazolar.

Tabiat, uni asrash, xalq o'yinlari, afsona, ertak, bobolarimiz Alisher Navoiy, Amir Temurlarning hikmatli so'zlari berilgan.

2-sinfda: bu tushunchalar rivojlantirilgan holda ular negizida yangi tushunchalar: burch, mehr, inson qadri, vaqtni qadrlash, o'zini

anglab, tarbiyalash, mehmon kutish va mehmonga borish, do'stlashish, milliy merosimizdan o'gitlar, milliy bayramlar va ularda o'zini tutish odobi kabitushunchalar, bola yoshiga mos ertak, hikoya, she'r, masal va rivoyatlar orqali berilgan.

3-sinfda: istiqbol va uning asosi, yoshlik, beg'uborlik, qarilik, donolik, tejamkorlik, isrofgarchilik, hunar, orastalik, extiyotkorlik, tabiat go'zalligi, qanotli me'morlar kabi tushunchalar, rivoyatlar, hikoya, hikmat, hadislarda berilgan.

4-sinfda: asosan avvalgi tushunchalar rivojlantirilib, ular zamirida farzand istiqboli, onaga mehr, iymon, mustaqillik, nafsni boshqarish, yurt tinchligi, xalq farovonligi, millatlararo totuvlik, bola huquqlari, o'zlikni anglash kabi tushunchalar berilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga "Odobnoma" fanini o'qitish jarayonida quyidagi bilimlar berilishi lozim:

– Odob va axloq, insonga xos fazilatlar haqida avlod-ajdodlarimiz yaratgan merosning mazmuni, mohiyatini va unga amal qilishga o'rgatish;

– Odob-inson ko'rki va ma'naviy boyligi ekanligini, mutafakkir ma'rifatparvarlar asarlaridagi hikmat, rivoyat va o'gitlarni, milliy sharqona odob-axloq qoidalari, fazilatlarini, o'zbekona urf-odat va an'alarining milliy xususiyatlarini farqlash va amalda qo'lash usullarini o'rgatish;

– Vatan tuyg'usi, vatanparvarlik, mustaqil O'zbekiston – ona Vatanimiz uning gul-gul yashnashi, rivojlanishi haqida bilim hosil qilish;

– Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'urur, iftixor mohiyatini tushuntirish va ularni ardoqlashga o'rgatish.

– Yuqoridagi berilgan bilimlardan kelib chiqib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Odobnoma" fanidan quyidagi ko'nikma va malakalar hosil qilinishi kerak:

– Odob-axloqqa xos sifatlarni oquvchilarning kundalik ehtiyojiga aylantirish;

– Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni (urf-odat, rasm-rusum, an'ana, marosim) o'rganib, ularni turmush tarzida qo'llay olish;

– O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – farovonlik qonuni ekanligi;

– Yurt tinchligi, xalq farofonligi, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik tushunchalarining mazmuni;

– Komil insonni tarbiyalashga qaratilgan axloq-odob sifatlarini ongli, ixtiyoriy bajarishga odatlantirish;

– Ajdodlarimiz qoldirgan komil insonga xos ijobiy sifatlarini yomon holatlardan ajrata bilishga, yaxshilikni o'ziga shior qilib olishga o'rgatish;

– Mustaqil Vatanimizning har bir muvaffaqiyati, istiqlol yo'lida qilinayotgan ishlari bilan faxrlanish va Vatanga mehr hissiyatini uyg'otish, har qanday tajovuzkor kimsalardan nafratlanish;

– Odobsiz insonlarga nisbatan murosasiz bo'lish, nafratlanish, ularni shu holatdan chiqarish chora-tadbirini izlashga o'rgatish;

– “Bola huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Konvensiya” orqali o'quvchilarda huquqiymadaniyatni shakllantirish.

– Demak, odobnoma fanining maqsad va vazifasi kelajagi buyuk davlatimiz farzandlarini odobli va yuksak axloqli qilib tarbiyalashdan iborat.

– Buning uchun boshlang'ich sinflarda odob-axloq malakalarini singdirish va bolalardayoshlikdan komillikka intilish his-tuyg'ularini shakllantirish uchun quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

– Respublikada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'naviy-axloqiy tarbiya berishda sog'lom muhitustuvorligiga erishish;

– Ta'lim va tarbiyaning uzluksialigiga ahamiyat berish;

– Ta'lim va tarbiya jarayonida bola ruhiyatini tarbiyalash;

– Ta'lim jarayonida tarbiya samaradorligini va tarbiya orqali ta'lim qudratini oshirish;

– Ta'lim-tarbiyani dunyoviy tasnifda shakllantirish;

– Jamiyatda, xalqimizga bo'lgan muhabbat va sadoqatni tarbiyalash;

– Vatan ravnaqi yo'lida halol va fidokorona mehnat qilish;

– Mehnat faxriylari va ilg'orlari, ilm-fan xodimlari, ijodkorlar, piru-badavlat qariyalar bilan uchrashuvlar tashkil etish;

– Davlat tiliga e'tibor, uni sevib qadrlash.

Odobnoma darslarini tashkil etish va olib borishda yuqoridagi tamoyillarga amal qilish va odob-axloq malakalarini suhbat, munozara, ma'ruzalar, ertaliklar, musobaqalar uyushtirish orqalishakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Odobnoma fanining maqsad va vazifalariga ko'ra har jihatdan axloq-odobli farzandlarni tarbiyalash, barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Shunga ko'ra, bu darslardamilliy urf-odat, rasm-rusum,

an'ana, marosim, bayramlarimiz, momolarimiz ardoqlagan ibo, hayo, pokizalik, bobolarimiz qadrlagan g'urur, jasorat, mardlik, ajdodlarimizning boyma'naviy merosidan namunalar orqali singdirish, odobnoma darslarining asosiy maqsadigako'ra, farzandlarimizni iymon-e'tiqodli, vijdonli, adolatli, mehr-muhabbatli, o'z vatanigasodiq qilib tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Odob-tarbiya, g'ozal axloq nazokatlik demakdir. Odob tushunchasi va uning mazmuni haqida juda ko'p qoidalar, ta'riflar mutafakkir, ma'rifatparvarlar tomonidan berilgan. Misol uchun Alisher Navoiy odobga quyidagicha ta'rif bergan edi: "Adab kichikyoshlarni ulug'lar duosiga sazovor etar va ul duo barakati bila umrdin barxurdor. Adab vatavazu do'stlig' ko'rgusida jilo berur, ikki jilodin yorug'liq yetkurur" ("Manbubulqulub" dan).

Voiz Koshifiy fikricha: "Odob - bu qalbni yomon so'zlardan va nojo'ya xulqdansaqlab qolish, o'zini va o'zgalarni ham hurmat qila bilish, shu bilan birga o'zini va o'zgalarni ham obro'sini tushurmaslikdir" ("Axloqi Muhsiniy" asaridan).

Bularga o'xshash fikrlar juda ko'p bo'lib, ularning barchasida odob-tarbiya ulug'langan. Odob hayotdan o'qish-o'rganish, oila tarbiyasi zamirida paydo bo'ladigan muomala-munosabatlar majmuasidir. Odob insonlarni ruhiy holatlarini aks ettiruvchi madaniy munosabatlar tizimidir. Odob va axloq tushunchalari o'zaro bog'liq bo'lib, insonning axloq mavjud qonun va qoidalar me'yoriy talablarini bajarishda o'z ifodasini topdi.

Odobnoma fanining asosiy manbalari:

xalq og'zaki ijodi qirralari;

milliy va umuminsoniy qadriyatlar;

xalq pedagogikasi;

diniy-ma'naviy tarbiya;

mutafakkir va ma'rifatparvarlarning asarlari;

odob durdonalari (pandnoma va nasihatnomalar);

o'zbek oila pedagogikasi;

Prezident I. Karimov asarlari;

Milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasiga doir asarlar, hisoblanadi.

"Odobnoma" darsligidagi materiallar boshqa darsliklardan farqli ravishda o'quvchilarni ko'proq fikrlashga undaydi. Ezgu niyatlar qilishga chorlaydi. Ayniqsa, budarslar o'yin-mashg'ulot sifatida berilsa, o'quvchilar tomonidan mavzu oson o'zlashtirilishita'minlanadi.

“Odobnoma” darsligida yana o‘quvchilarni ko‘proq munozaraga kirishishga chorlash kerak. Bunda o‘quvchilarga erkinlik berish, uni qo‘llab-quvvatlash lozim. Har bir bolaga fe‘l-atvori, aql-idrokiga qarab munosabatda bo‘lish, o‘quvchi bilan o‘qituvchi hamkorligini ta‘minlaydi.

Kichik yoshdagi bola ruhiyatida har bir narsa va hodisaga qiziquvchanlik faoliyatini rivojlantirish, ulardagi bilishga bo‘lgan intilish kabi xislatlar rivojlantirilishi kerak. O‘quvchilarni vaqtida rag‘batlantirish va maqtab turish lozim, sababi, bolalar maqto‘vni judayaxshi ko‘radilar.

Boshlang‘ich sinflarda ta‘lim-tarbiya berishda, xususan, “Odobnoma” darslarini to‘g‘ri tashkil etish va olib borishda o‘qituvchidan chuqur bilim, katta mahorat, ma‘naviyatiboy, izlanuvchan, eng muhimi fidoiy bo‘lish talab etiladi. To‘g‘ri va xilma-xillikda tashkilotilgan darslar, o‘quvchilarni faolligi va qiziqishi, bilimni oshirish orqali, barkamollikni shakllantirib boradi.

Hozirgi kunda, biz bu haqda avvalgi kurslarimizda ham juda ko‘p to‘xtalgan edik, yangi pedtexnologiyalar, interfaol metodlar, umuman ta‘lim jarayonini yuksak samarasini oshiruvchi yo‘l-yo‘riqlar ko‘p bo‘lib, ulardan fanga, mavzuga mosini erkin tanlab, unumli foydalanib, o‘zina izlanish orqali o‘ziga xos darslarni tashkil etishimizga imkon beradi.

Shaxsning ma‘naviy barkamolligi xalq pedagogikasida, diniy ma‘naviyatida, pedagogik qadriyatlarda alohida e‘tiborga sazovor bo‘lib kelgan. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalda qo‘llashda “Ta‘limning yangi modeli” jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishga olib keladi. O‘zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo‘lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega (“Barkamol avlod orzusi”. T., “Sharq”, 1999, 180-bet).

Ma‘lumki, yuqorida ta‘kidlangandek, komil insonni shakllantirishda ta‘lim jarayoni muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun barcha fanlarni o‘qitishda noan‘anviy usullardan foydalanib, o‘quvchilarni faolligi oshirilib borilsa, ko‘zlangan maqsadga tezroq erishiladi.

Odobnoma – mustaqil Vatanimizning sog‘lom avlodini ma‘naviy tarbiyalashning ildiz bo‘lgan asosiy fandi.

Boshlang‘ich sinflarda umuminsoniy qadriyatlar ruhida

tarbiyalash quyidagi pedagogic vazifalarni amalga oshirilganda ijobiy kechadi:

kichik yoshdagi o'quvchilarda bilimga chanqoqlik, ma'rifatparvarlik xissi shakllantirilganda;

o'quvchilarda siyosiy ong va huquqiy madaniyat o'stirilganda, ya'ni qonun ustuvotligi tamoyiligarioya qilish ko'nikmalari shakllantirilganda;

o'quvchilarda insoniylik va insonparvarlik hislatlari shakllantirilganda;

ta'lim-tarbiya jarayonida aqliy, huquqiy axloqiy va boshqa tarbiya turlari uyg'unlashtirilgan holdaolib borilganda;

umuminsoniy va milliy qadriyatlarimiz, boy madaniy – ma'naviy Merosimiz manbalaridanto'laqonli foydalanilganda;

ta-lim-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilinganda.

Bundan ko'rinib turibdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashini kengaytirish, ma'rifatga, ilm o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttirish, ko'p jihatdan insoniylik va insonparvarlik, ezgulik va ijodiylik, tinchlik va erkinlikka chanqoqlik xislatlarini vujudga keltirishi bilan birga ulardakomillikni shakllantiradi.

Boshlang'ich sinflarda odobnoma darslarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar zamiridamilliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi haqida o'quvchilarga beriladigan dastlabki tushuncha, bilimlar:

Mustaqil O'zbekistonimizning istiqlol yillarida erishgan yutuqlarining sabablari, ya'ni Vatangacheksiz muhabbat, yurt tinchligi, xalq farovonligi, ijtimoiy o'zaro hamkorlik, millatlararo totuvlikekanligini sodda, oddiy misollar orqali to'g'ri tushuntirish. Komil insonga xos bo'lgan barkamollikdastlab odobdan boshlanishi g'oyasi xalq og'zaki ijodidan boshlab, milliy meros va ma'naviyqadriyatlarda o'z aksini topgan. Shu sababdan, odobnoma fani yosh avlodda milliy g'oya vamafkurani shakllantiruvchi dastlabki fan hisoblanadi.

1-2-sinflarda o'quvchilar odobnoma darslarida odob-axloq haqidagi elementar, ya'nisalomlashish, oila va undagi munosabatlar, kiyinishga doir, farzandlik va shogirdlik burchlari, do'stlashish va jamoa joylarda o'zlarini tutish va hokazo tushunchalar bilan tanishish orqali, ilkma'naviy, madaniy ta'lim-tarbiya oladilar. Bu bilimlar esa, o'quvchilarni komillikka yetaklovchi

birinchi qadam bo'lib xizmat qiladi. Albatta, bu tushunchalarni yuqorida aytib o'tilgandek, turlizamonaviy metodlar, axborot texnologiyalardan foydalangan holda, ko'rgazmali va qiziqarli qilib yetkazilishi talab etiladi.

3-4-sinflarga kelib o'quvchilarga berilayotgan tushunchalar yanada kengayib, ozmi-ko'pmimustaqil fikrlash ko'nikmasi shakllantirilgan bo'lib, bu sinflarda quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi lozim:

- o'dob insoniy fazilatlarining ziynati ekanligini anglash;
- o'dob-axloqqa doir g'oyalarga o'z munosabatini erkin bayon etish;
- ijtimoiy hayotdagi xulq-atvorlarga befarq bo'lmaslik;
- o'dobsizlik holatlari salbiy oqibatlariga olib kelishini anglash;
- ota-ona oldidagi farzandlik burchlarini his qilish;
- gunoh va savob nima ekanligini anglash;
- ajdodlarimiz boy merosini o'rganish va ularni e'zozlash;
- ilm-hunar egallash ezgu fazilat ekanligini bilish;
- milliy qadriyatlarimiz ma'naviy boyligimiz ekanligini anglash;
- oila, mahalla – vatan ichra vatan ekanligini bilish;
- muomala madaniyatiga o'rgatish;
- ehtiyotkorlik, ogohlik va hushyorlik borasidagi ilk tushunchalarni anglash;
- Bilishi kerak:
- ona-Vatan tuyg'usi, milliy g'ururni;
- ota-ona mehnatini his etishni va unga javoban mehribonchilik qilishni;
- mahalla haqidagi tushunchalarni;
- mahallaning ilg'or, taniqli, el e'zozlagan insonlari hayoti bilan faxrlanishni va boshqalarni.

O'quvchilar huquqiy bilim asoslariga oid quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlarishart:

asosiy ijtimoiy qonuniyatlar, tushuncha va atamalarni bilish, ularning mohiyatini tushunish;

ijtimoiy ong, ijtimoiy burch, vazifa, vijdon haqida tushunchalarga ega bo'lish va boshqalar.

bilaman –tasdiqlayman.

MILLIY QADRIYAT TUSHUNCHALARINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH METODLARI

Yuqoridagi bayon qilingan fikrlardan kelib chiqqan holda, qadriyatlarning pedagogik jihatdan asoslashdan oldin filosiya, tarix, sosiologiya singari fanlarning qadriyatlar haqidagi bildirilgan ma'lumotlarini tahlil qilib, so'ngra uni pedagogik jihatdan asoslash maqsadga muvofiqdir.

BLITS SAVOLLAR

- 1. Qadriyat va odatni qanday farqi bor?
- 2. O'zbek xalqining qanday milliy qadriyatlarini bilasiz?
- 3. Milliy qadriyatni qanday tushunasiz?
- 4. Qadriyatlarsiz inson barkamol bo'la oladim?
- 5. Milliy qadriyat qaysi sohalarga oid bo'lishi mumkin?

Eng avvalo shuni qayd qilish kerakki, qadriyatlar euda sermazmun va ko'pqirrali tushuncha. Shu nuqtai nazardan –adriyat nima?, uning mohiyati, asosiy jihatlari nimadan iborat?, o'quvchilarga xalqning milliy qadriyat va uning xalq tomonidan qadrlanishi, o'ziga xos xususiyatlari, tarixiyligi haqidagi bilim, ko'nikma, odat va ma'lumotlar berib ular ongida, tafakkurida tasavvur hosil qilish muhimdir.

Shuning uchun ham adabiyotlarda mazkur tushunchaga turlicha yondoshuvlarni guvohi bo'ldik. Masalan, "Falsafiy ensiklopediya" , ("Filosofskaya ensiklopediya" Moskva, 1970 y. T.) ning beshinchi jildida qadriyatlar quyidagicha tavsiflangan: "Qadriyat falsafiy va sosiologik tushuncha. U birinchidan, biror obyektning ijobiy va salbiy qiymatini, ikkinchidan, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi –

baholovchi jihati (subyektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlari) ni ifoda etadi". Shunga ko'ra obyektiv (ashyoviy) va subyektiv (ong qadriyatlari) bir-biridan farq qilinadi.

Yuqoridagi manbada yozilishicha, tabiiy boyliklar va tabiat hodisalari (bular yaxshilik va yomonlik nuqtai nazaridan baholanadi). Mehnat mahsullarini iste'mol qiymati (umuman foydalilik); ijtimoiy hodisalar mujassamlangan ijtimoiy ezgulik va yovuzliklar; hozirgi zamon kishilarining boyligi sifatida namoyon bo'luvchi moviyning madaniy merosi; ilmiy haqiqatning foydali samarasi yoki nazariy ahamiyati; kishilarning hatti harakatlarida ifodalanuvchi axloqiy, yaxshilik va yomonlik; tabiiy va ijtimoiy obyektlarning hamda san'at asarlarining estetik jihatdan tavsiflanishi; sajdagohlar, diniy ibodat buyumlari va boshqalar ashyoviy qadriyatlarga kiradi.

Ong qadriyatlariga normativ tasavvurlar (yaxshilik va yomonlik, adolat, go'zallik va xunuklik haqidagi, tarixning ma'nosi va insonning vazifasi haqidagi tasavvurlar, ideallar, harakat normalari va prinsiplari tarzida ifodalangan ijtimoiy ko'rsatmalar va baholar, talab va ta'qiqlar, maqsad va loyihalar kiradi).

Ana shunga yaqin nuqtai nazar O'zbek sovet ensiklopediyasida ham bayon etilgan: "qadriyat (falsafa va sosiologiya) – voqyelikdagi muayyan hodisalarning insoniy, iqtisodiy va madaniy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha".

Qadriyatlarning jamiyat taraqqiyoti, inson hayotidagi ko'rsatadigan ta'siri nuqtai nazardan ijobiy va salbiy qadriyatlarga ajratilishini ham esdan chiqarmaslik kerak.

Jamiyatning iqtisodiyoti, madaniyati va ma'naviyatining – ilgari qarab rivojlanishi, milliy axloq, odob, urf-odat negizlarida komil insonni tarbiyalashga, mustaqil Respublikamizni har tomonlama ravnaq toptirib, jahon sivilizatsiyasiga qo'shimcha astosidil xizmat qiladigan qadriyatlar – bu ijobiy qadriyatlarni tashkil etadi. Aksincha jumhuriyatimizning oldida turgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy muammolarni hal etishga to'sqinlik qiladigan hodisalar salbiy qadriyatlarga kiradi.

Qadriyatlar ichida eng birinchi va eng umumiy hayotning o'zidir, chunki hayotdan maxrum bo'lish qolgan barcha qadriyatlardan foydalanishni yo'qqa chiqaradi. Qolgan qadriyatlar, aslini olganda, hayot ne'matlarining mohiyatidir, madaniy qadriyatlardir.

“Qadriyatlar muayyan jamiyat yoki sinfga mansub kishilar turmushi va madaniyatining haqiqiy yoki ideal ne’matlari bo’lgan tabiat va jamiyat hodisalarining mohiyati (yoki hodisaning bir jihati)dir. Bu ne’matlarning qadriyat deyilishiga sabab – kishilar ularni qadrlaydilar, chunki bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini boyitadi. Shuning uchun ham kishilar o’z tasarruflaridagi qadriyatlarni himoya qiladilar va o’zlari uchun maqsad yoki ideal bo’lgan qadriyatlarni amalga oshirishga intiladilar”.

“Oilada yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o’rni” mavzusini o’rta o’qitishda “Aqliy hujum” metodidan foydalanish

O’zbek xalqining qanday milliy qadriyatlarini bilasiz?

Qadriyatlarning hayotdagi o’rni va ahamiyati baholash tufayli belgilanadi. Baholash esa insonlarning ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari, qiziqishlaridan kelib chiqadi. Bizga ma’lumki jamiyat a’zolarining ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari xilma-xil bo’lib, ko’pincha ular bir-biriga zid kelishi mumkin. Shuning uchun ham muayyan ijtimoiy guruhlar, millatlar, sinflar uchun oliy qadriyat bo’lib hisoblanib kelingan toyifa va jamiyat hodisalari boshqalar uchun qadriyat bo’lmasligi ham mumkin va aksincha.

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan har qanday hodisa o’tmishda ijobiy ahamiyat kasb etgani uchungina emas, balki kelajak istiqboli uchun yangi imkoniyatlar yaratib berishga qodir bo’lganligi sababli ham qadriyat deb ataladi.

Qadriyatlarda ular yuzaga kelgan davrning ruhi, imkoniyatlari talab va ehtiyojlari o’zining yaqqol ifodasini topadi. Har bir qadriyat ma’lum, konkret davr, sharoit va ehtiyojlarning mahsuligina emas, balki uning ko’zguisi hamdir.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida davrlar o'tishi, sharoit va imkoniyatlar o'zgarib turishi ham qadriyatlarining mazmunida, ularga munosabatda o'z ifodasini topadi.

Umuman olganda, qadriyatlar jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan, o'tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir etadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etgan moddiy, ma'naviy boyliklardir.

MILLIY QADRIYATLAR

- Millat tarixi, o'tmishi, kelajagi va ma'naviy merosi
- Millatning genofondi, tabiiy betakrorligi, o'ziga xosligi, tarixiy o'zgaruvchanligi va ijtimoiy rang-barangligi
- Milliy g'urur, milliy iftixor, milliy mansublik
- Milliy bag'rikenglik, baynalminallik, millatlararo totuvlik, hamjihatlik, hamdardlik
- Urf-odatlar, an'analar, marosimlar, turmush tarzi va boshqalardagi milliylik, ular bilan birga o'ziga xos xususiyatlar
- Milliy til, milliy madaniyat va ma'naviyat, milliy ong va milliy ruh, milliy tuyg'ular va g'oyalar
- Milliy hudud, moddiy va madaniy yashash sharoitlari, iqtisodiy asos va ijtimoiy ustqurma bilan bog'liq jihatlar.

Yuqorida qadriyat tushunchalariga berilgan fikr-mulohazalarning falsafiy, tarixiy nuqtai nazaridan ko'rib chiqdik. Bizga ma'lumki, qadriyatlar nafaqat ijtimoiy-falsafiy muammo, balki pedagogik muammo xamdir. Garchi qadriyatlar nazariyasi falsafiy muammo sifatida 1960 yillardan boshlab tadqiq etila boshlangan bo'lsada, biroq qadriyatlarining tarbiyaviy ahamiyati beqiyos bo'la turib, ilmiy-pedagogik jihatdan yetarlicha o'rganilmagan. Falsafiy talqinga ko'ra, qadriyatlar inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan erkinlik, tanglik, ijtimoiy tenglik, haqiqat, ma'rifat, go'zallik, hayotda va tabiatda bo'ladigan yaxshiligu ezgulik kabi jamiki xislatu fazilatlar yig'indisidir.

“Ma'naviyat – inson ruhiyatini, uning o'z-o'zini anglashda, didi, farosati, adolat bilan rozilikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go'zal bilan

xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyatini, aql-zakovatini, yuksak maqsad va g'oyalarni qo'ya bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatidir", - deb ta'rif berish o'rinli deb hisoblaymiz. Albatta, bu ta'rif eng oxirgi, qiyomiga yetgan, mukammal deb aytishimiz mumkin emas.

Ma'naviyat inson tug'ilishida ona suti, uning allasi, mehri, ajdodlar qadriyatlari ta'siri ostida shakllanadi. Uning shakllanishida oiladagi muhit, jamiyatlardagi hamjihatlik, davlat olib borayotgan siyosatdagi adolatparvarlik va insonparvarlikning qay darajada amal qilinishi asosiy o'rinni egallaydi.

Madaniyat tushunchasi keng ma'noda insoniyatning butun tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratgan va yaratayotgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarning yig'indisini ifodalaydi. U inson aql-idroki, iste'dodi va mehnati mahsulidir.

Mafkura faqat butun emas hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy masala, har qanday jamiyatni sog'lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib uning o'z muddaolariga erishish uchun ma'naviy-ruhiy kuch quvvat beradigan poydevor bo'lib kelgan.

Xalqimiz madaniy merosi, an'analari, qadriyatlari, urf-odatlari bizlar uchun faqat o'tmishdan qolgan yodgorlikkina emas, barcha ma'naviy boyliklarning tarkibiy qismi, inson aql-idroki va tafakkurining buyuk tuyg'usi hamdir.

Meros - o'tgan avlodlar tomonidan yaratilgan, bizgacha yetib kelgan ijtimoiy-ma'naviy, moddiy hodisalar, madaniy boyliklar, urf-odatlar, marosimlar axloq normalaridir. Meros taraqqiyot uchun ham zarur omil bo'lgandagina, qadriyat darajasiga ko'tarila oladi.


BOSHLANG'ICH SINIF ODOB NOMA DARSLARIDA MILLIY QADRIYATLARNI SINGDIRISHDA BO'YICHA BIR SOATLIK DARS ISHLANMASI

Darsning texnologik xaritasi

Darsning mavzusi	Salomlashish odobi
Faoliyat jarayoni	<p>Darsning turi: yangi bilim beruvchi, sayohat darsi.</p> <p>Darsning metodi: suhbat, tarmoqlash, mustaqil ish, raqobatlashtirish.</p> <p>Darsning jihozi: ko'rgazma qurollar, tarqatma varaqalar, plakatlar, hayvonlar rasmlari.</p>
Darsning maqsadlari	<p>Ta'limiy maqsad: O'quvchilarga salomlashish odobini o'rgatish, Tolib Yo'ldoshning "Odobning boshi – salom" she'rini ifodali o'qitish.</p> <p>Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarga o'zbekona salomlashish, so'rashish odobini, "Assalomu alaykum", "Vaalaykum assalom" so'zlarini ma'nosini tushuntirish.</p> <p>Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni milliy urf –odatlarimiz haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.</p>
Kutilayotgan natija	Dars yakunida o'quvchilar to'g'ri salomlashishga o'rganadilar o'rganadilar.

Dars jarayoni			
Ishning nomi	Bajariladigan ishlar mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich Tashkiliy qism	1. Salomlashish, tozalikni kuzatish, sinf davomatini aniqlash. 2. Ma'naviya daqiqasini o'tqazish, oltin qoidalar.	"Suhbat"	5 daqiqa
2- bosqich O'tigan	1. Uy vazifasini tekshirish. 2. O'tgan mavzuni so'rash	"Klaster" usuli	10 daqiqa

mavzuni so`rash	3.“Bo`g`irsoq” ertagini boshlash 4.“Bo`g`inlardan so`z tuz” o`yini	tarqatma kartochkalari “Aqliy hujum”	
3- bosqich O`tilgan mavzuni mustahkamlash	1. O`tilganlarni mustahkamlashga doir savollar berish, tushunchalar berish kerak. 2. Ayiqning topshirig`ini bajarish. “	Savol - javob Didaktik o`yin	5 daqiqa
4- bosqich Yangi mavzu bayoni.	1. Yangi mavzu bilan tanishtirish. 2. Tolib Yo`ldoshning “Odobning boshi – salom” she`rini o`qitish	Suhbat mustaqil ishlash.	15 daqiqa
5- bosqich Yangi mavzuni mustahkamlash.	1.Topshiriqlarni bajarish. 2. Rasmi tarqatmalar orqali savol-javob o`tkazish.	Tushuntirish musobaqa	7 daqiqa
6- bosqich Dars yakuni	O`quvchilarni darsda ishtiroki hisobga olinib, reyting ballari e`lon qilinadi va uyga vazifa beriladi,dars yakunlanadi.	Tushuntirish	3 daqiqa



Darsning borishi:

1-bosqich. Tashkiliy qism:

Salomlashish, o'quvchilarni darsga jalb qilish.

O'qituvchi: Bolajonlar hozir qaysi dars?

O'quvchilar xor bo'lib:

Odob ahloqdan ta'lim olgaymiz,

Ustoz o'gitin yodda saqlaymiz.

O'qituvchi: Darsimiz shiori nima?

O'quvchilar xor bo'lib:

Odobli bola hammaga manzur,

Uni ko'rganda qilasan huzur.

O'qituvchi: Navbatchining hisobotini eshitamiz.

Navbatchi sana, davomat haqida hisobot beradi.

O'qituvchi: Bolalar, bugun biz "Ertaklar olamiga"ga sayohat qilamiz. Siz qanday ertaklarni bilasiz?

O'quvchilar bilgan ertaklarini sanashadi.

Ma'naviyat daqiqasi.

O'qituvchi: Hozir men sizga rus xalq ertaklaridan "Bo'g'irsoq" ertagini aytib beraman. Lekin mana bu savollarimga javob berishingiz kerak.

Savollar:

1. Ertaklar qaysi son bilan boshlanadi? **(1)**

2. Eng katta bir xonali son qaysi? **(9)**

3. Alisher Navoiy bobomiz nechanchi fevralda tug'ilgan? **(9)**

4. Eng kichik bir xonali son qaysi? **(1)**

O'quvchilar savollarga javob berishadi.

O'qituvchi: Bolalar qaysi son kelib chiqdi? Vatanimiz tarixida shu yili qanday qutlug' sanalar esda qoldi?

1- o'quvchi: 31-avgust – Vatanimiz mustaqil beb e'lon qilindi.

2- o'quvchi: 1- sentabr – Mustaqillik bayrami deb e'lon qilindi.

2-bosqich. O'tgan mavzuni so'rash.

O'qituvchi: Barakalla. Ana endi ertagimizni boshlaymiz. Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim zamonda chol bilan kampir bor ekan. Chol bir kuni kampirga:

– Kampirjon, bo'g'irsoq pishirib ber, - debdi.

– Pishirib bermayman, - debdi kampir.

– Nima uchun pishirib bermayman deyapsan? – debdi chol.

– Agar mana bu bolalar odobnoma darsi nimalarni o‘rgatishini aytib bersagina pishirib beraman, - debdi kampiri.

Bolalar, boboga yordam beramizmi? Qani odobnoma darsida nimalarni o‘rganayotganligimizni aytib beringlar.

O‘quvchilar bilganlaricha javob berishadi Masalan:

O‘quvchi: Odobnoma fani bizga salomlashish, kiyinish, yurish, so‘zlashish odoblarini o‘rgatadi.

O‘qituvchi: Barakalla bolalar. Shunday qilib kampir bo‘g‘irsoq pishirishga ketibdi. Bo‘g‘irsoq nimadan tayyorlanadi?

O‘quvchilar bilganlaricha javob berishadi. O‘qituvchi javoblarni to‘ldirib boradi.


Bolalar, onaxon sizga yana bir topshiriq berib ketdi. Bo‘g‘irsoq pishgunicha o‘quvchilar mana bu bo‘g‘inlardan so‘zlar tuzsin deb shart qo‘ydi.

BO‘G‘INLARNI YIG‘!

Va	bu	mu
go	be	re
di	yo	qad
tan	yuk	das

O‘quvchilar bo‘g‘inlardan so‘zlar tuzishadi.

O‘qituvchi: Sizlar so‘z tuzguningizcha kampir mana bu bo‘g‘irsoqni pishirib kelibdi va uni deraza tokchasiga qo‘yib ketibdi. Chol boboni ishi tugayvermabdi. Bo‘g‘irsoq turaverib zerikibdi va derazadan bir sakrab pastga tushibdi. O‘rmon oralab, qo‘shiq kuylab keta boshlabdi.



Dam olish daqiqasi

Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq, surpadagi un-urvoq.

Supurishib oldilar, xamir qilib qordilar.


Pishirdilar tovada, sovutdilar havoda,

Qochib ketdim bobomdan, qochib ketdim buvimdan.

Bolalar ushbu qo'shiqni jismoniy harakatlar bilan bajarishadi

Shunda oldidan quyon chiqib qolibdi va bo'g'isoqqa:

– Salom bo'g'irsoqjon yaxshimisan? Qornim ochib turibdi seni yeyman,- debdi.



– Meni yemagin, senga qo'shiq aytib beraman, - debdi bo'g'irsoq.

– Qoshiq kerak emas, bolalar mana bu konvertdagi savollarga javob berishsa seni yemayman,- debdi quyoncha.

Bolalar bo'g'irsoqqa yordam beramizmi?


3-bosqich. O'tgan mavzuni mustahkamlash.

O'tilgan mavzular yuzasidan savollar:


1. Mening oilam she'rini kim yozgan?
2. Inson o'z oilasini nima uchun yaxshi ko'radi?
3. Siz oilada nima ishlar qilasiz?
4. Sizning oilangiz ahilmi?
5. Sizning oila necha kishidan iborat?

O'quvchilar savollarga javob berishadi.

O'qituvchi: Bo'g'irsoq yo'lida davom etibdi, oldidan ayiq chiqibdi:



- Bo‘g‘irsoqjon yaxshimisan? Juda vaqtida uchradingda, qornim ochib turgandi seni yeyman,- debdi.
- Meni yemagin, senga qo‘shiq aytib beraman, - debdi bo‘g‘irsoq.
- Qoshiq kerak emas, bolalar mana bu topshiriqlarga javob berishsa seni yemayman,- debdi ayiq. Bolalar bo‘g‘irsoqqa yordam beramizmi?



O‘quvchilar topshiriqni bajarishadi.


O‘qituvchi: Shunday qilib ayiq ham bo‘g‘irsoqni yemabdi. Bo‘g‘irsoq yana yo‘lida davom etibdi. Yurib-yurib charchabdi. O‘tirib dam olmoqchi bo‘libdi. Bolalar ham dam olishsin.

Dam olish daqiqasi.

Assalom Quyosh bobo,
Hammaga kerak bobo.
Doim kulub turasiz,
Yerga hayot berasiz.
Ta'zim aylaymiz sizga,
Nurli Quyosh bobojon,
Siringiz oching bizga.
Sirli Quyosh bobojon.



Qo'shiq jismoniy harakatlar bilan kuylanadi 4-bosqich. Yangi mavzu bayoni.



O'qituvchi: Bo'g'irsoq yo'lida davom etibdi, uning oldidan bo'ri chiqib qolibdi va bo'g'irsoqqa:

- Bo'g'irsoq yaxshimisan? Ochqab turgandim seni yeyman,- debdi.
- Meni yemagin, senga qo'shiq aytib beraman, - debdi bo'g'irsoq.
- Qoshiq kerak emas, bolalar Tolib Yo'ldoshning "Odobning boshi - salom" she'rini tinglashib, o'qituvchining savollariga to'g'ri javob berishsa seni yemayman,- debdi bo'ri.

Bolalar savollarga javob beramizmi?

"Odobning boshi - salom" Tolib Yo'ldosh.

Yo'l ustida uchragan
Kishiga bersang salom.
Alik olib avvali, so'ngra
Der: "Raxmat, bolam".
Salomsiz o'tsang,
Sho'rlik soqov ekan der.
Tiling bo'lgach albatta,

Kattalarga salom ber.

O'qituvchi o'quvchilar bilan she'r haqida savol- javob o'tkazadi.

Falakning yulduzi bor,

Kechaning kunduzi bor.

Dildan aytilgan kalom –

Go'zal O'zbek so'zi bor:

„Assalomu alaykum!“

Quyosh yorug` nur bilan,

Bahor go'zal gul bilan,

Odob doim u bilan –

„Assalomu alaykum!“

Kattalarda hurmat bor,

Kichiklarda izzat bor.

Salomda zo'r hikmat bor.

„Assalomu alaykum!“

O'qituvchi: Aziz bolajonlar! Bu qizimiz „Assalomu alaykum“ she'rini juda chiroyli ayib berdi. Bu – bejiz emas. Demak bugungi mavzumiz salomlashish odobi ekan.

Siz har kuni kattalar bilan salomlashish lozimligini yaxshi bilasiz. Biroq uning ma'nosi nima, qaysi paytlarda salom berish kerak, qayerlarda salomlashib bo'lmasligini, uning o'ziga xos odoblari mavjudligini hammangiz ham bilmasligingiz mumkin. Men bilamanki, barchangiz odobli bolalarsiz. Chunki siz o'zingizdan kattalarga salom berishni kanda qilmaysiz. Demak odob – salomdan boshlanadi. Biroq salom berishning ham o'ziga xos odoblari bor.

Jumladan, kattalarni ko'rganda o'ng qo'limizni ko'ksingizga qo'yib „Assalomu alaykum“ deyishimiz kerak.

„**Assalomu alaykum**“ – men sizga salomatlik tilayman degan ma'noni anglatadi.

„**Vaalaykum assalom**“ – men ham sizga salomatlik tilayman, ma'nosini anglatadi.

Salom berishni quydagi bir necha holatini yodda tutinglar:

– – jamoat joylariga borganda:

– yoru-do'stlari, aka-opalarni ko'rganda:

– –biror xonadonga kirib borganda:

– bir yerda jam bo'lib o'tirgan kishilar davrasiga kirganda;

– o'z xonadoningizga kirganingizda ham oila azolaringizga salom berishni kanda qilmang.

Otliq piyodaga, turgan odam o'tirganlarga salom beradi.

Kichiklar kattalarga, yolg'iz odan ko'pchilikka salom berdi.

Imo-ishora bilan emas ovoz chiqarib salom berish kerak.

Bolalar, boya mem sizlarga "Assalomu alaykum" so'zining ma'nosini va insonlarga mehr-muhabbat baxsh etishi haqida aytib o'tdim. Endi quydagi rivoyatga quloq tiuting.

– Salom berish shunday qudratliki, uning sehri biln yovuz kuch ham muloyim tortib qoladi. Afsonalarda aytilishicha, yalmog'iz kampirga duch kelgan bir kishi nima qilarini bilmay, shoshilganidan: "Assalomu alaykum" deb yuboribdi.

Shunda odamxo'r yalmog'iz "Menga ham salom beradigan odam bor ekanda", deb o'ylab: "Xap, saloming bo'lmaganda ikki yamlab yutardim", degan ekan. Salom berish bilan bu kishi yalmog'iz domidan qutilgan ekan.

Bu afsonaning ma'nosi shuki, salom har qanday tosh bag'ir odmi, hatto yalmog'izning dili yumshatar ekan.

"Salom – Tangri bandalarining yerdagi ishlari (amallari)dan biridir. Bir-bir laringiz bilan salomlashib yuringlar. Zero, mo'min kishi odamlar oldidan o'tib borayotib, ularga salom bersa, ular ham alik olishsa, ularga salomni eshitgani uchun bir daraja ko'p savobga erishadi. Mabodo, alik olishmasa, ulardan afzalraq zotlar, ya'ni farishtalar alik olishadi"

Hadisdan

"Bir-birlaringiz bilan salomlashib yuringlar. Shunda o'rtalaringizda mehru muhabbat uyg'onur".

Hadisdan

"Bir tup daraxt kessang, o'n tup nihol ek"

Hadisdan

Endi shoir Xushnudning "Salom" she'rini o'qib beraman, yaxshilab tinglang.

Bu hayotning ziynati – bahri bashorat – assalom,

San'ati so'z naqshi bu, nuri hidoyat – assalom,

Xislati birla jahon ahliga ne'mat – assalom,


Xalqaro joriy etilmish xush ibora – assalom,

Jumla insonga barobar yaxshi odat – assalom!

6-bosqich. Yangi mvzuni mustahkamlash.

O'qituvchi: Barakalla bolalar. Bo'g'irsoqqa juda katta yordam berayapsiz. Shunday qilib bo'g'irsoq yana yo'lida davom etibdi.

Oldidan tulki chiqib qilibdi va bo'g'isoqqa shunday bebdi:



- Bo'g'irsoq yaxshimisan? Qornim ochib turibdi seni yeyman.
– Meni yemagin, senga qo'shiq aytib beraman, - debdi bo'g'irsoq.
– Qoshiq kerak emas, bolalar mana bu konvertdagi savollarga javob berishsa seni yemayman,- debdi tulki. Bo'g'irsoqqa yordam beramizmi?

Tarqatma varaqalar topshiriladi. Varqalarda turli rasmlar tasvirlangan. O'quvchilar rasm asosida gaplar tuzishadi.

Navbat "Davomini siz ayting" o'yiniga. O'quvchilarga hadislar, hikmatli gaplar, maqollarning yarmi yozilgan varaqalar tarqatiladi o'quvchilar davom ettiradilar.

1. Salom berish farz,(alikh oilsh – qarz).
2. Odamning yuzi oftobdan(issiq).
3. Bir kun tuz ichgan yeringa(qirq kun salom ber).
4. Odob(salomdan boshlanadi).

So'ng o'quvchilarga Po'lat Mo'min she'ri Nodir Norxo'jayev musiqasi bilan yaratilgan "Salom bergan bolalar" qo'shig'i o'rgatiladi.

Salom bergan bolaning o'zi odobli
Kulib turgan yuzlari go'yo oftobli.

Naqorat:

Salom berish bu – a'lo alomat,
Salom bergan, bo'ling salomat.
Salom bergan bolaning darsi doim "besh"
Maktab, uyda, ko'chada yaxshilarga esh.

Naqorat:

Salom berish bu – a'lo alomat,
Salom bergan, bo'ling salomat.

Savol-javoblar orqali mavzu mustahkamlanadi, baholar e'lon qilinib,

darsga yakun yasaladi.

6-bosqich. Dars yakuni.

O'qituvchi: Bo'g'irsoq aylanib-aylanib yana chol bilan kampirning uyiga kelibdi va shunday debdi:

– Salom bobojon, salom buvijon, men yana qaytib keldim. Bolalar menga yordam berganligi uchun o'rmondagi hayvonlar meni yeyisha olmadi. Endi men sizning dasturxoningiz ko'rki bo'laman. Menga yordam bergan bolalarga esa mana bu bo'g'irsoqchalarimdan beraman.

Faol qatnashgan o'quvchilar bo'g'irsoqchalar bilan rag'batlantiriladi.

Uyga vazifa: O'tilgan mavzuni o'qish va qo'shiqni yod olish.
Rag'bat kartochkalari

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinflarda odobnoma darslarini noan'anviy tarzda tashkil etishning asosiy g'oyasi o'quvchilarning milliy ruhda, yuksak madaniyat, ma'naviyatli, mustaqil fikrlovchi va o'z qarashlarini himoya qilishga qodir, barkamol avlodni voyaga yetkazish va vatanimizga munosib merosxo'rlarni tarbiyalashdir. Bunga erishish ko'p jihatdan ta'lim-tarbiya beruvchi pedagoglarning fidoiyligi, izlanuvchan va intiluvchanligiga bog'liq ekanligi yuqoridagi keltirilgan misollarimdan ko'rinib turibdi.

Boshlang'ich sinflarda har bir odobnoma darslarini interfaol tarzda tashkil etish lozim, zero odobnoma darslari o'quvchilarning komil ison bo'lib yetishishlari uchun o'ziga xos maktab vazifasini o'taydi. Chunki, agar boshlang'ich sinf o'qituvchisi odobnoma darslarini to'g'ri tashkil eta olsa, ya'ni darslarida har doim interfaol usullardan, didaktik o'yinlardan, pedagogik texnologiyalardan foydalansa, boshlang'ich sinf o'quvchilari har bir odobnoma darsidan o'ziga xos ma'naviy ozuqa oladilar va kelajakda komil inson bo'lib yetishadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov. «Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori» -T, 1997 y.
2. O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». T.1997.
3. I.A.Karimov. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. Toshkent “Ma`naviyat” 2011 yil.
4. I. A. Karimov. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. Sharq. 1999 yil.
5. A. Avloniy. “Turkiy Guliston – yoxud axloq”. Toshkent. O`qituvchi. 1992 yil.
6. M. Jumaboyev. O`zbek bolalar adabiyoti. Toshkent 1994 yil.
7. Hasanboyeva va b.Odobnoma va uni o`qitish metodikasi. Toshkent, 2003-yil
8. Maktab va hayot. 2005 yil, 6-son
9. www.ziyonet.uz

MUNDARIJA

Kirish	3
Boshlang`ich ta`limda odobnoma darslarining ahamiyati	4
Milliy qadriyat tushunchalarini pedagogik texnologiyalar asosida o`qitish metodlari.....	12
Boshlang`ich sinf odobnoma darslarida milliy qadriyatlarni singdirishda bo`yicha bir soatlik dars ishlanmasi.....	17
Xulosa	28
Foydalanilgan adabiyotlar	29

TUXTAYEV OLIMJON XOLMURODOVICH

**BOSHLANG'ICH SINIF ODOBNOMA DARSLARIDA MILLIY
QADRIYATLARNI SINGDIRISHDA TARBIYAVIY ISHLARNING O'RNINI**

Texnik muharrir *Abdullayev F.*

Terishga berildi: 08.01.2021 y.
Bosishga ruxsat berildi: 12.01.2021 y.
Ofset bosma qog'ozi. Qog'oz bichimi 60x84 ¹/₁₆.
«Cambria» garniturasini. Ofset bosma usuli.
2 bosma taboq Adadi: 50 nusxa.
Buyurtma №2/20

Samarqand viloyati Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta
tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi
bosmaxonasida chop etildi.

Samarqand shahar, Boysunqur ko'chasi 3-uy.

